

TA'LIM VA BOSHQARUV NAZARIYASI

Xidirova Safura Donaboy qizi

Navoiy davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 4– bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim va boshqaruv nazariyasining o'zaro bog'liqligi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda boshqaruvning ahamiyati yoritilgan. Ta'lim nazariyasining asosiy komponentlari, tamoyillari va zamonaviy kompetentlik yondashuvi tahlil qilingan. Shuningdek, boshqaruvning funksiyalari, metodlari hamda ta'lim tizimini boshqarishning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada innovatsion texnologiyalarning ta'lim va boshqaruv jarayoniga ta'siri hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim nazariyasi, boshqaruv, menejment, pedagogika, ta'lim jarayoni, kompetentlik yondashuvi, ta'lim tamoyillari, boshqaruv funksiyalari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim tizimi, pedagogik texnologiyalar, motivatsiya, rejalashtirish, nazorat, ta'lim sifati.

Аннотация: В данной статье освещается взаимосвязь теории образования и управления, их роль в развитии общества, а также значение управления в эффективной организации образовательного процесса. Проанализированы основные компоненты и принципы теории образования, а также современный компетентностный подход. Кроме того, рассмотрены функции и методы управления, а также специфические особенности управления системой образования. В статье также обсуждается влияние инновационных технологий на образовательный и управленческий процессы, а также существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: теория образования, управление, менеджмент, педагогика, образовательный процесс, компетентностный подход, принципы обучения, функции управления, инновационные технологии, система образования, педагогические технологии, мотивация, планирование, контроль, качество образования.

Annotation: This article highlights the interconnection between the theory of education and management, their role in the development of society, as well as the importance of management in the effective organization of the educational process. The main components and principles of educational theory, along with the modern competency-based approach, are analyzed. In addition, the functions and methods of management, as well as the specific features of managing the education system, are examined. The article also discusses the impact of innovative technologies on educational and managerial processes, as well as existing problems and ways to address them.

Keywords: education theory, management, management (administration), pedagogy, educational process, competency-based approach, principles of education, management

functions, innovative technologies, education system, pedagogical technologies, motivation, planning, control, quality of education.

Bugungi global miqiyosdagi va axborotga asoslangan jarayonda ta'lim sohasi jamiyat taraqqiyotining ahamiyatli omillaridan biri sifatida alohida qadriyatga ega bo'lmoqda. Har qanday yurtning taraqqiyot darajasi uning ta'lim tizimi va uni boshqarish samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu sababga ko'ra ta'lim va boshqaruv nazariyasini chuqur o'rganish zamonaviy davr ehtiyojidir. Ta'lim jarayoni faqat bilim ulashish bilan cheklanmaydi, balki shaxsni har tomonlama o'stirishga xizmat qiladi. Bu jarayonni samarali tuzish esa boshqaruvning to'g'ri tashkil etishiga qaramdir. Shu jihatdan qaralganda, ta'lim va boshqaruv nazariyasi o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalar sanaladi.

Ta'lim nazariyasi pedagogikaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, ta'lim jarayonining mazmuni, ko'rinishlari, usullari va qonuniyatlarini tadqiq etadi. Ta'lim- bu shaxsga bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli o'rgatish, uni hayotga va mehnatga tayyorlash jarayonidir. Ta'lim sifatini belgilovchi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar ta'lim jarayoning asosiy komponentlaridir.

Ularga:

- Ta'lim mazmuni- o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv materiallari orqali beriladigan bilimlar majmuasi;
- Metodlar va yondashuvlar- ta'lim berish usullari, pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlari;
- Vositalar- ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, ko'rgazmali qurollar kabilar;
- Maqsad va vazifalar- ta'limdan kutilayotgan yakuniy natijalar va shaxsning rivojlanish;
- Natijalarni baholash va refleksiya- olingan bilim va ko'nikmalarni, shuningdek, ta'lim samaradorligini o'lchash komponenti kabilar kiradi.

Ushbu komponentlar tizimli yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaradi. Ta'lim tamoyillari, ya'ni prinseplar, o'quv jarayonining maqsadi va mazmunini, shakl va metodlarini belgilab beruvchi asosiy qoidalar jammlaridir. Ular ta'limning sifatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Asosiy tamoyillarga ilmiylik, tizimlilik, tushunarlilik, ko'rgazmalilik, ta'limning hayot bilan bog'liqligi kabi xislatlar kiradi. Bu tamoyillar pedagogik qonuniyatlarga asoslanib, ta'lim nazaryati rivojlanishi bilan yangilanib boradi. Zamonaviy yondashuvda kompetentlik yondashuvi muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Boshqaruv – bu aniq bir tizimni maqsadga mos ravishda tuzish, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va nazorat qilish jarayonidir. Ta'lim sohasida boshqaruv alohida rol mijozini egallaydi, chunki u ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Boshqaruv, ya'ni menejmentning asosiy funksiyalari – bu tashkilot maqsadlariga erishish uchun amalga

oshiriladigan o‘zaro bog‘liq harakatlar majmuasidir. Zamonaviy menejment nazariyasiga ko‘ra to‘rtta umumiy funksiyalar farqlanadi:

1. Rejalashtirish- tashkilot maqsadlarini belgilash va unga erishish strategiyasini ishlab chiqish.
2. Tashkil etish - maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan resurslarni taqsimlash, vakolatlarni belgilash, tuzilmani shakllantirish.
3. Motivatsiya- tashkilot maqsadlarini samarali bajarishga xodimlarni undash, xodimlar mehnatini rag‘batlantiruvchi tizim yaratish
4. Nazorat- amalda erishgan natijalarni rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash va xatolarni aniqlab, ularni tuzatish choralarini ko‘rish.

Boshqaruv metodlari- tashkilot qo‘yilgan maqsadga erishish uchun boshqaruvchi rahbar tomonidan xodimga ko‘rsatiladigan ta’sirdir. Ular asosan uchta guruhga bo‘linadi:

1. Ma’muriy yoki buyruqbozlik usuli.
2. Iqtisodiy usul.
3. Ijtimoiy-psixologik usullar.

Samarali rahbar odatda vaziyatga qarab ushbu usullarning barchasini aralashtirib qo‘llaydi.

Ta’lim tizimini boshqarish boshqa sohalardan o‘zining murakkabligi va ko‘p qirrali xususiyatlariga ko‘ra ajralib turadi. Bu jarayon nafaqat tashkiliy, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillarni ham o‘z ichiga oladi. Ta’lim boshqaruvi — bu o‘qitish va tarbiyalash jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda ularni samarali tashkil etishni anglatadi. Ta’lim muassasasi rahbari nafaqat boshqaruvchi bo‘lishi, balki pedagogik yetakchi sifatida ham faoliyat ko‘rsatishi lozim.

Ta’lim tizimida bugungi kunda innovatsion texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Raqamli platformalar, masofaviy ta’lim va elektron boshqaruv tizimlari buning yaqqol namunasidir. Boshqa so‘z bilan aytganda, texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada qulay va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, boshqaruv jarayonlarida ham axborot texnologiyalaridan foydalanish ish unumdorligini oshiradi.

Bundan tashqari, ta’limni boshqarish bilan bog‘liq ba’zi muammolar mavjud. Xususan, xodimlarning savodxonligi pastligi, resurslarning yetarli emasligi va eskirgan boshqaruv amaliyotlari kiradi. Ushbu qiyinchiliklardan xalos bo‘lish uchun zamonaviy boshqaruv texnikasini joriy etish, ko‘nikmalarni rivojlantirish tizimini yaratish va xorijiy tajribani sinchkovlik bilan o‘rganish juda muhimdir. Foydalanilgan adabiyotlar:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / R.X. Jo‘rayev va boshqalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Xoliqov A.A. “Pedagogik mahurat”. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.

3. https://raqamlitalim.trm.uz/uploads/young_scientists_file/1751278136.pdf
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
5. Ishmuhamedov R.J. “Innovatsion pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
6. Quronov M., To‘raqulov X. “Pedagogika nazariyasi va tarixi”. – Toshkent, 2016.
7. UNESCO. “Education in a Changing World”. – Paris, 2019.